

Xulosa. Immigrant adabiyoti Amerika zamonaviy adabiyotini boyitish bilan bir qatorda, uning madaniyatini shakllantirishning markaziy kuchini tashkil qiladi. “Amerika orzusi” g‘oyasining ajralmas qismini tashkil etuvchi ko‘plab immigrant adabiyoti namunalari “Eski Dunyo”dan “Yangi Dunyo”ga ko‘chib o‘tgan millionlab odamlarning orzulari va tajribalaridan kelib chiqadi. Immigrant yozuvchilar yaratgan asarlar tarix, ilm-fan, din yoki siyosiy qarashlar tashviqoti uchun xizmat qilish bilan bir qatorda, globallashuv jarayonida millatlararo bag‘rikenglik hamda o‘zga millat madaniyatini o‘rganishda juda muhim vazifani bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Adams Rachel. The Ends of America, the Ends of Postmodernism. Twentieth Century Literature 53.3 (2007): 248-272. Academic Search Premier. Web. 07 May, 2011. P. 241
2. Boelhower William. The Immigrant Novel as Genre.” MELUS 8.1 (1981): JSTOR. Web. 6 Feb. 2011. P. 3-13.
3. Nixon Rob. African, American. Rev. of The Beautiful Things that Heaven Bears. New York Times. Mar. 2007. P.25
4. Shankar, S., and Louis Mendoza. Crossing into America: The New Literature of Immigration. New York: The New P, 2003. P. xiii-xxvi.
5. Sollors Werner. Ethnic Modernism. Cambridge: Harvard UP, 2008. P. ix.

MAQOLLARDA YAXSHILIK TUSHUNCHASI: ANTROPOTSENTRIZM VA MADANIY QADRIYATLAR

Gadoeva Mavlyuda Ibragimovna

Fan doktori, professor, BuxSU

m.i.gadoeva@buxdu.uz

Rahmonova Jasmina Matyoqubovna

BuxSU 1-bosqich magistratura talabasi

j.m.rahmonova@buxdu.uz

Annotatsiya. Mazkur tezisdagi xalq maqollarida ifodalangan yaxshilik tushunchasi antropotsentrik yondashuv asosida tahlil etiladi. Tadqiqotda maqollar insonning kundalik hayoti, tajribasi, axloqiy qarashlari va madaniy qadriyatlari bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Til hodisasi sifatida maqollar xalqning umumiy ma’naviy va madaniy merosini aks ettirib, yaxshilikni universal qadriyat sifatida tasvirlaydi. Antropotsentrizm nuqtai nazaridan qaranganda, maqollar nafaqat til birligi, balki inson tafakkuri va axloqiy ideallarining ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu ishda “yaxshilik” konseptining lingvistik va madaniy o‘ziga xosliklari, uning ifoda vositalari, shuningdek, turli madaniy kontekstlardagi talqinlari o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari maqollarni tahlil qilishda antropotsentrik yondashuvning ahamiyatini va xalq og‘zaki ijodining inson hayoti bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Antropotsentrizm, yaxshilik tushunchasi, xalq maqollari, inson qadriyatlari, madaniy meros, lingvistik tahlil, axloqiy qadriyatlar, ma’naviy qadriyatlar

Kirish. Bugungi kunda tilshunoslikda antropotsentrik yondashuv alohida ahamiyat kasb etmoqda. Antropotsentrizm tilni inson tafakkuri, tajribasi va dunyoqarashining in’ikosi sifatida talqin etadi. Xalq og‘zaki ijodining muhim namunalari bo‘lgan maqollar esa insonning axloqiy qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari va ma’naviy qarashlarini o‘zida aks ettiradi. Shu ma’noda, xalq maqollarida ifodalangan yaxshilik tushunchasi ham inson markazidagi qadriyatlarning yorqin namunasi sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur tadqiqotda maqollar orqali ifodalangan yaxshilik konsepti antropotsentrik nuqtai nazaridan o‘rganiladi. Ishda maqollar orqali insoniyat qadriyatlari qanday aks etgani, yaxshilikning madaniy va ma’naviy asoslari qanday shakllangani tahlil etiladi.

Asosiy qism. Xalq maqollarida yaxshilik konsepti inson markazidagi qadriyatlarni yorqin aks ettiradi, chunki ular bevosita inson tajribasi, odob-axloqi va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Tilshunoslikdagi antropotsentrik

yondashuvga ko‘ra, til birliklari insoniyat tajribasini kodlaydi va uning kognitiv dunyoqarashini ifodalaydi⁵¹. Maqollar esa, aynan shu tajribaning ixcham va kuchli ifodasi bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, o‘zbek tilidagi "Yaxshiga yor, yaramasga kor bo‘lma" maqolida yaxshilik konsepti selektiv qadriyat asosida aks etgan: inson yaxshilikni kimga qilish kerakligini farqlashi lozimligi uqtiriladi. Bu maqol orqali jamiyat tajribasi shuni ko‘rsatadiki, har bir inson yaxshilikka munosib emas va yaxshilik qilishda ham aql bilan ish tutish kerak. Antropotsentrik yondashuv nuqtayi nazaridan qaralganda, yaxshilikni mutlaq emas, balki ijtimoiy va axloqiy me'yorlarga asoslangan holda amalga oshirish g‘oyasi ilgari suriladi⁵². Ingliz tilidagi "Cast not pearls before swine" maqoli ham xuddi shu ma‘noni ifodalaydi: qadrini bilmaydigan kishiga yaxshi munosabat ko‘rsatish befoйда ekani ta’kidlanadi. Bu maqollar madaniyatlararo semantik universalini ko‘rsatadi: har ikkala tilda ham yaxshilik qadriyat sifatida e’tirof etiladi, biroq uni amalga oshirish maqsadli va ongli ravishda, qadrdon insonlarga nisbatan amalga oshirilishi tavsiya etiladi. Bundan ko‘rinadiki, yaxshilik konsepti xalq ongida faqat ijobiy akt sifatida emas, balki ijtimoiy funktsionallik bilan ham bog‘liqdir. Yaxshilikni kimga va qachon ko‘rsatish masalasi ham antropotsentrik tafakkurning mahsuli sifatida ko‘riladi, chunki bu insonning hayotiy tajribasi, kuzatuvi va ijtimoiy normativlari asosida shakllangan. O‘zbek maqollarida ko‘proq ijtimoiy o‘zaro yordam va jamoaviy qadriyatlar ustun tursa, ingliz maqollarida esa shaxsiy manfaat va individual ong elementlari ko‘proq seziladi⁵³. Natijada, yaxshilik tushunchasi xalq maqollarida nafaqat insonning ma'naviy dunyosini ifodalaydi, balki uning ijtimoiy va madaniy hayotdagi rolini ham ko‘rsatadi.

O‘zbek xalq maqollarida yaxshilik konsepti nafaqat axloqiy fazilat sifatida, balki ijtimoiy munosabatlarning muhim mezon sifatida ham ko‘rsatiladi. "Yaxshilikni bilganga qil, ham aytadi, ham qaytadi" maqoli bu g‘oyani aniq ifodalaydi. Maqolda yaxshilik qilishning maqsadli auditoriyasi — ya’ni yaxshilikning qadriga yetadigan insonlar — asosiy rol o‘ynaydi. Antropotsentrik yondashuv nuqtayi nazaridan bu maqolda inson tajribasi, qadriyatlar va jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar tili orqali ifodalanadi⁵⁴. Ingliz tilida bunga mos ifoda sifatida "Do good to those who deserve it" yoki "Kindness to the grateful is never wasted" kabi maqollarni keltirish mumkin. Har ikki tilda ham yaxshilik shunchaki beriladigan sovg‘a emas, balki ijtimoiy kapital sifatida qoraladi: yaxshilikni qadrlaydigan inson unga layoqatlidir va uni qaytarmog‘i ehtimol⁵⁵. Bunda insonning kognitiv va axloqiy holati asosiy mezon sifatida ko‘riladi.

Bu holat, Lakoff va Johnson ta’kidlaganidek, metaforik tafakkur orqali ijtimoiy tajribani tartibga solish modelini ko‘rsatadi⁵⁶: yaxshilik — bu sarmoya va uni o‘z vaqtida "qaytarish" ijtimoiy normaning bir shakli sifatida ko‘riladi. Sharifian yozganidek, madaniy konseptualizatsiya til birliklarida chuqur aks etadi⁵⁷, bu maqolda ham ayni hol kuzatiladi. O‘zbek tilida yaxshilik qilish va uni qadrlash o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar xalq tafakkurining asosiy qismidir. Kövecses keltirganidek, yaxshilik va minnatdorchilik universallar bo‘lsa-da, ularning ifoda uslubi

⁵¹ Lakoff, G. (1987). *Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind*. Chicago: University of Chicago Press, p. 12.

⁵² Sharifian, F. (2017). *Cultural Linguistics: Cultural Conceptualisations and Language*. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, p. 45.

⁵³ Kövecses, Z. (2005). *Metaphor in Culture: Universality and Variation*. Cambridge: Cambridge University Press, p. 124.

⁵⁴ Lakoff, G. (1987). *Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind*. Chicago: University of Chicago Press, p. 12.

⁵⁵ Gadoeva, M.I. (2021). *The Concept of "Goodness" in Uzbek Proverbs: A Cognitive Approach*. Tashkent: Fan, pp. 154-157.

⁵⁶ Lakoff, G. & Johnson, M. (1980). *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press, p. 5.

⁵⁷ Sharifian, F. (2017). *Cultural Linguistics: Cultural Conceptualisations and Language*. Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, p. 45-49